
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ Farg'ona shahar bo'limi va Issiqlik manbai korxonasi tomonidan magistral suv quvurlaridagi nosozlikni bartaraf etishda kovlangan joylarni asfal't qilish yuzasidan murojaat tarqaldi.

Mazkur murojaat shahar hokimligi, "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ va Issiqlik manbai shahar bo'limi mutaxassislari ishtirokida o'rganildi. Mas'uliyati cheklangan jamiyati ishchilari tomonidan nosozlikni bartaraf etish maqsadida kovlangan joylar asfal't qilindi. Issiqlik manbai korxonasi tomonidan tez kunlarda mazkur hududda "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida tarmoq tortish ishlarining bajarilishi hisobga olinib, vaqtincha mayda tosh tashlanib yo'l soz holatga keltirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-28 16:53:28